



TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Jahongir Hoshimov^{1*}

PhD, Tashkent moliya instituti

"Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Tashkent, O'zbekiston. Email: jahongirhoshimov442@gamil.com

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT

Jakhongir Khoshimov^{1*}

PhD, Tashkent Financial Institute

Independent researcher of the Department "assessment work and investments"

Tashkent, Uzbekistan. Email: jahongirhoshimov442@gamil.com

JEL Classification: G10, G11

Annotatsiya. To'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarning nazariy va metodologik asoslari o'r ganilgan. Mamlakatimizga jalg qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi va dunyo mamlakatlariga jalg qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'zgarishi tendensiyasiyalari tahlil qilingan. Jon Danningning OLI modeli nomi bilan mashhur bo'lgan eklektik nazariyasi TTXI jalg qilishni ta'minlovchi omillarni empirik tadqiq qilishda nazariy asoslari keltirib o'tilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy nazariy konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyotimiz investitsion salohiyatini oshirish orqali TTXIIlarni iqtisodiyotimizga oqilona jalg qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Abstract. The theoretical and methodological foundations of direct foreign investments have been studied. The volume of direct foreign investment attracted to our country and the trends of changes in the flow of direct foreign investment attracted to the countries of the world were analyzed. John Dunning's eclectic theory, known as the OLI model, is theoretically grounded in the

empirical study of factors that ensure TTXI engagement. The main theoretical concepts of foreign direct investments have been developed. Ways of rationally attracting foreign investors to our economy and using them effectively by creating a favorable investment environment in our country, increasing the investment potential of our economy have been considered.

Kalit so'zlar: To'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya, Jon Danningning OLI modeli, investitsiya muhiti, investitsiya, konsepsiya, eksport, transmilliy korporatsiya

Key words: Foreign direct investment, John Dunning's OLI model, investment environment, investment, concept, export, transnational corporation.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish, shuningdek, joylarda yuqori

daromadli ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdan biridir. Globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o'rtasida investitsiyaviy hamkorlik qilish roli ortib bormoqda. Jahon mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish suratlari yuqori bo'lgan rivojlanyotgan davlatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi bir necha 20 yil mobaynida umuman to'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va shu jumladan, o'tish iqtisodiyotini boshdan kechrayotgan mamlakatlardagi xorijiy investitsiyalarga oid ko'plab nazariy va empirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunday mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ularni qabul qilayotgan mamlakatdagi va ayni paytda investor-mamalakatdagi turli omillarga va jarayonlarga bog'liqdir. Shu boisdan ham to'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari bo'yicha universal modelni tasavvur qilish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi.

XX asrning o'rtalariga qadar rivojlangan mamlakatlarda, avvalambor, Amerika Qo'shma Shtatlarida tom ma'nodagi ya'ni butun dunyoni qamrab olgan ilg'or ishlab chiqarish tarmog'iga ega transmilliy korporatsiyalar shakllana boshladi. Ushbu korporatsiyalarning (masalan, Xerox, IBM, General Electric, Dupont, General Motors va Coca Cola) keng miqyosli xalqaro faoliyati rivojlangan mamlakatlar olimlarini transmilliy korporatsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sohasidagi faoliyatini o'rganish uchun zarur empirik ma'lumotlar bilan ta'minlandi. Shu vaqtidan e'tiboran g'arb olimlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tushunchasi mohiyati, sabablari va iqtisodiy oqibatlarini izohlab

beradigan nazariyalarni rivojlantira boshladilar.

1966 yilda fransuz olimi R.Vernon tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro mahsulot ishlab chiqarish siklining paradigmasi xalqaro savdo va xorijiy investitsiya o'rtasidagi o'zgaruvchan o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. [1] Unda Yevropadagi urushdan keyingi tiklanish davrida Shimoliy Amerika korporatsiyalari tomonidan savdo va investitsiyalash hajmining o'sishi ko'rib chiqilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga doir makroiqtisodiy nazariya Kojima (1973 yil, 1990 yil) va Ozava (1984 yil) ishlarida bayon etilgan. Unga ko'ra yapon firmalari tomonidan amalga oshirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dastavval savdoga muvofiqlashgan bo'lib, qiyosiy ustunlik tamoyili talablariga javob beradi. O'z navbatida AQSH kompaniyalarining xorijdagi investitsiyalari esa dastavval oligopolistik bozor tuzulmasi doirasida amalga oshirilib, savdoga qarshi investitsiyalar turiga kiradi, hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun salbiy oqibatlar keltirish ehtimoli yuqorilagini ta'kidlaydi [2]. Kojima haqiqatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oraliq mahsulotlar bilan savdo qilish uchun samarali vosita sifatida ishlash kerak, deb hisoblaydi biroq, bunday investitsiyalar vaqt va ularning yo'nalishini bozor kuchlari ta'sirida belgilanishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Knikkerboker (1973 yil) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va oligopolistik muhofaza g'oyasini ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra kuchli raqobat xukum surgan sohalarda bozor tuzulmasi va yetakchining xarakatlari raqobatchi firmalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish sur'atini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Uning tadqiqotida 1948-1967 yillar davomida korporatsiyaning xalqaro faoliyatini o'rganilgan bo'lib, oligopolistik tarmoqlarga xorijga

investitsiyalarni amalga oshirgan yetakchi firmalar ortidan ularning mahalliy raqobatchilari borishi nomoyon bo'ldi [3].

C.Liyesbeth, M.Miyet, S.Jo ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. O'tish davri mamlakatlarda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish tizmini takomillash-tirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalarga texnologiyalar va bilimlarni jalg qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi[4].

G.M.Galeeva va E.N.Kadeevalar esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta'sir qiladi [5].

Bizning fikrimizcha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid nazariy konsepsiylar transmilliy korporatsiyalarning xalqaro investitsiya faoliyati va ularning iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sirini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metod. Ma'lumki, har qanday davlat jahon tajribalarini o'rjanmasdan, dunyodagi yetakchi davlatlarning ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan turib rivojlnana olmaydi. Binobarin, mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti asosan investitsiyalarga, xususan biznesda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakalchilikka va o'zaro ishonchga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga bog'liqligini deyarli barcha xo'jalik yurituvchi subyekti yaxshi anglaydi. Shu maqsaddan kelb chiqib biz, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy nazariy konsepsiylari (1-jadval) orqali ko'rib chiqamiz.

1-jadval

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy nazariy konsepsiylari [6]

| Muallif | TTXI oqimini rag'batlantiruvchi omillar | Nazariy xulosalar | Zamonaviy qo'llash sohasi |
|------------|---|--|--|
| R. Aliber | Kapital va valyuta bozorlarining takomillashganligi | Valyutasi barqaror mamlakatlarda firmalar yuqori kapitallashish darajasiga ega, buning hisobiga valyutasi beqaror mamlakatlarda TTXI riski qoplanadi | TTXIning rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga chiqarilishi va ularning valyuta kursi dinamikasiga bog'liq holda o'zgarishi |
| K. Kodzima | Muayyan resurslarga egalik qilishda nisbiy afzalliklarning mavjudligi va kompaniyalar faoliyat yuritayotgan bozor tuzilmasining xususiyatlari | TTXI – tashqi savdoga qo'shimcha tarzda kompaniyalarning nisbiy afzalliklarini oshiradi. TTXI tashqi savdoga yo'naltirilgan (Yaponiya) va yo'naltirilmagan (AQSH) turlarga bo'linadi | Yapon TTXI xususiyatlari |

| | | | |
|--|---|---|--|
| T. Ozava | Yaponiya iqtisodiyotiga xos xususiyatlar: tashqi bozorlarga bogʻliq; milliy ishlab chiqarish omillari bahosining oshishi yapon tovarlariga nisbatan proteksionizm siyosatining kuchayishi va boshqalar | TTXI qayd etib oʻtilgan salbiy omillarni kamaytirish imkonini beradi | Yapon TTXI xususiyatlari |
| A. Shmits P. Xelmberge | TTXI asosida vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmalari va kapital eksport qiluvchi mamlakat tomon yangi xom ashyo oqimlarini shakllantirish imkoni | TTXI vertikal va grizontal integratsiya jarayonlari tufayli savdo hajmini oshiradi | Qazib oluvchi tarmoqlardagi TTXI |
| R. Mandell | Bojxona tariflarining darajasi | Kapital harakatining importni oʻrnini qoplashga qaratilishi | Import oʻrnini qoplashga yoʻnaltirilgan TTXI |
| T. Xorst | Foyda va eksportni maksimallashtirish | Ushbu maqsadga erishish TTXI amalga oshirish strategiyasini nazarda tutadi | Narxlarning talabga bogʻliq holda oʻzgarishi hisobga olingan hollarda |
| S. Xaymer | Portfel investitsiyalar uchun - foiz stavkalari; TTXI uchun investitsiya kiritilayotgan firma mahsulotining differentsiatsiyalashuvi, «miqyos taʼsirida» tejash, savdo belgisi, patentlangan texnologiyalar, yuqori darajadagi menejment va marketing shakllaridagi nisbiy afzalliliklar | TTXI va xalqaro savdo – bir-birining oʻrnini bosuvchi strategiyalar boʼlib investorlarga mahalliy firmalar tomonidan raqobat kurashida toʼsiqu yaratish imkonini beradi | Firmalarning portfel investitsiyalari; Differensiyatsiyalashgan va vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarishga ega firmalar tomonidan amalga oshirilayotgan TTXI |
| S. Xirsh | Kompaniyaning nisbiy afzalliklari va axborot olish, bitimlarni amalga oshirish, xorijda aloqalarni yoʻlga qoʻyish uchun qilingan xarajatlar | Kompaniya TTXI strategiyasini tanlaydi: 1) agar nou-xau egasi, oʻz mamlakati va xorijda mahsulot sotishda kata farqqa ega boʼlsa; 2) ishlab chiqarish xarajatlari past boʼlgan mamlakatlar mavjud boʼlsa | TTXI nou-xaugaga ega kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi; TTXI ishlab chiqarish xarajatlari past boʼlgan mamlakatlarga chiqariladi |
| D. Penrouz O.Uilyamson K. Errou | Bozorning iqtisodiy institut sifatida mustaqil sotuvchilar va xaridorlar oʻrtasida aktivlar, tovarlar va axborotlar bilan samarali almashinuvni amalga oshira olmasligini yengishga boʼlgan intilish | Firmaning muzokaralar va bitimlar, mulk huquqini himoya qilish, xaridorning bexabarligi tufayli tovar uchun maksimal narx olishning iloji yoʼqligi va boshqalar uchun xarajatlar qancha yuqori boʼlsa, kompaniya TTXIni amalga oshirishda shunchalik faol boʼladi | Kompaniyalar tomonidan bozorning no-mukammalligini yengish uchun koʻp miqdorda sarf-xarajatlar qilingan hollarda qoʼllaniladi |

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni harakatlanishini ta‘minlovchi, keng miqiyosdagi turli omillarni birlashtiruvchi, J.Danningning 1980 yilda chop etilgan eklektik nazariyasi yoki OLI modeli nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu model internatsionalizatsiya nazariyasining keyingi rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi. J. Danning o‘zining ushbu nazariyasi orqali birinchilardan bo‘lib xalqaro korporasiyalar xorijiy investitsiyalarini o‘z mamlakati iqtisodiyotidan tashqari xorijiy davlatlarga harakatlanishini rag‘batlantiruvchi omillarga nisbatan yaxlit va tizimli yondashuvni ishlab chiqdi. Quyidagi 1-rasm orqali ko‘rib chiqamiz.

OLI modeli nomi bilan mashhur bo‘lgan J.Danningning eklektik nazariyasidek [8] bir necha o‘n yillar davomida TTXI jalb qilishni ta‘minlovchi omillarni empirik tadqiq qilishda nazariy asos sifatida foydalanib kelingan. Ushbu nazariya transmilliy korporatsiyalarning xalqaro ishlab chiqarish va boshqa

operatsiyalari bo‘yicha qarorlariga ta’sir qiluvchi barcha asosiy omillarni hisobga olish bo‘yicha yaxlit yondashuvni taklif etadi.

Danningning mazkur nazariyasiga ko‘ra, TTXIdan foyda va uning o‘zi asosan 3 ta guruh omillariga bog‘liqdir, ya’ni xalqaro ishlab chiqarishga kirishayotgan firmaning mulkka egalik qilishdan yuzaga keladigan qiyosiy afzallikkleri (ownership-O), transmilliy korporatsiyalarning qaysi hududda ishlab chiqarishni tashkil etishini belgilovchi hududiy joylashuv omillari (location factors-L), transmilliy korporatsiyalarning boshqa firmalarga litsenziya so-tish yoki ular bilan franchayzing shartnomasi tuzishdan ko‘ra TTXI kiritishni ma’qul ko‘rishlarini asoslovchi internatsionalizasiyalashuv omillari (internalisation factor - I). OLI modelida mazkur 3 ta guruh afzallikkalaridan to‘liq foydalanish imkoniyati xalqaro kapital harakati shakllaridan faqat TTXI usulida mavjudligi asoslab beriladi (1-rasm).




1-rasm. Jon Danningning OLI modeli [7]

J.Danningning eklektik nazariya-si to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizga harakatlantiruvchi omillarni tahlil qilishda, unga asoslanib iqtisodiyotimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ekonometrik modellarni ishlab chiqishda va ulardan chiqarilgan xulosalar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foydalanishni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija. Mazkur islohotlarning natijasi o‘larоq O‘zbekistonga jalb qilinayotgan TTXI hajmi so‘nggi yillarda barqaror oshib bormoqda (2-rasm). Jumladan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish” [9] kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilangan.


To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va ular assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish apparatini yangilash va unga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, ilm-fan sig‘imli va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko‘paytirish imkoniyatlarini yaratadi. Ko‘rishimiz mumkinki ushbu 2-rasmda TTXIlar oqimi o’sish va kamayish tendensiyalari kuzatilgan. Biroq, 2019 yilda TTXI lar oqimi 2,3 mlrd. AQSH dollarni tashkil qilgan bo’lsa 2022 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 9,5 mlrd. AQSH dollari qildi. 2019 yilga nisbatan 24,2 foizga o’sgani ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. 2013-2022 yillarda mamlakatimizga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hajmlarining o‘zgarish tendensiyasi (mlrd. AQSH dollari hisobida) [10]

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Chunki, investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy generator vazifasini bajaradi. So‘nggi 11 yilikka nazar tashlasak, dunyo mamlakatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining o‘zgarishi kuzatilagan (3-rasm). 2012-2022 yillardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi tebranib turgan. Buning asosiy sabablaridan, 2012-2014 yillardagi jahon molivayiy-iqtisodiy inqirozining

iqtisodiyotni barcha tarmoqlariga ko‘rsatgan salbiy ta’siri bo‘lsa, ikkinchi tomondan, 2018-2020 yillardagi Yevropa davlatlarida boshlangan inqirozning ikkinchi to‘lqini shunigdek, COVID-19 pandemiyasining tas’siri, deb e’tirof etishimiz mumkin. 2022 yilda jahon bo‘ylab to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 1,3 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Bu o‘tgan yilga nisbatan 12 foizga kamaygan. 2016 yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qiymati eng yuqori ko‘rsatkichga erishdi va qariyb 2,1 trillion AQSH dollarini tashkil etdi.




3-rasm. 2012-2022 yillarda dunyo mamlakatlariga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining o‘zgarishi (trillion AQSH dollarida) [11]

Shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi erkin iqtisodiy hududlarga va dunyo mamlakatlarining real sektori tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida rivojlangan va yangi

industrial mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. 2022 yilda mamlakatlarga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar

oqimini quyidagi 4-rasm orqali ko’rib chiqamiz.



4-rasm. 2022 yilda mamlakatlarga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi (milliard AQSh dollar) [12]

4-rasm ma’lumotlarini tahlil qilib chiqadigan bo’lsak, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi asosan AQSh, Xitoy, Singapur, Gon Kong, Fransiya, Braziliya, Avstraliya va boshqa davlatlarga to‘g‘ri kelganini ko’rishimiz mumkin. Shu sababli

bizlar ham mamlakatimzga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi ya’na ham ko’paytirish maqsadida ushbu keltirilgan davlatlar tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy qilsak kelgusida

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi ko‘payishiga olib kelar edi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish va bandlik darajasini oshirishga, ichki kapital bozorini to‘ldirishga ta’sir qiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni yanada samarali jalg qilish uchun har bir mamlakat investitsiya muhitini yaxshilashga, investitsiyalarni ko‘paytirishga va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan samarali investitsiya siyosatini ishlab chiqadi; xorijiy investorlarga bir qator imtiyoz va preferensiyalar yaratadi; investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar to‘plamini qabul qiladi.

Xulosa.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish ishlarini faollashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

— kimyo va neft-gaz sanoati, mashinasozlik sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, bank-sug‘urta tashkilotlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish zarur;

— iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni faollashtirishda moliya bozorlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim;

— investitsiya va biznes forumlar, taqdimotlar (“Road Show”) va marketing kampaniyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim;

— davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni tashkil etish kerak;

— ustav fondining miqdori kamida 200 mln so‘m bo‘lgan hamda ustav fondidagi chet el investitsiyalari ulushi 15 foizni tashkil etuvchi korxonalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududida

yangi barpo etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirotidagi korxonalar deb hisoblash lozim;

— xorijiy investorlarni mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati, biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlar to‘g‘risida keng xabardor qilish maqsadida xalqaro konferensiylar, seminarlar, yirik investitsiya forumlarini tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalg etishni kengaytirish zarur;

— Respublika hududlarining brendini yaratish hamda reklama (roliklar)ni yetakchi telekanallarda joylashtirish, festivallar va anjumanlarda, ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etish, original shiorlarni ishlab chiqish yo‘li bilan ularni targ‘ib etishga qaratilgan «Yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqish lozim;

— hamkor mamlakatlarning biznes hamjamiyatlari ishtirotida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini yoritishga, shu jumladan investorlarni qonunchilikdagi o‘zgarishlar to‘g‘risida xabardor qilishga qaratilgan jahon miqyosidagi anjumanlarni tashkil etish va o‘tkazish zarur;

— investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish, shu jumladan, investitsiya shartnomalarini tuzish huquqini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga topshirish, tartib-taomillarni optimallashtirish kerak;

— tumanlar (shaharlar) hokimlariga xorijiy investitsiyalar ishtirotidagi korxonalarga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini 50 yilgacha bo‘lgan muddatga ijaraga berish zarur;

— investitsiya miqdori 200 million AQSH dollaridan hamda ijaraga beriladigan maydoni 70 ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan yirik savdo-ko‘ngilochar markazini qurish bo‘yicha investitsiya loyihalari doirasida tijorat binolarini ijaraga berish shartnomalarida ijara to‘lovlarini chet el



valyutalariga va shartli birliklarga ruxsat berish lozim.

Yuqoridagi bildirilgan taklif va tavsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotini

ya'nada rivojlantiradi, shuningdek, iqtisodiyotimizga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ya'na-da oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R. Vernon. International trade and international investment in the product cycle // The quarterly journal of economics. Harvard, 1966. - volume № 1. – pp. 190-207.
2. K. Meyer. Direct Investment in Economies in Transition: Edward Elger, 1998. – 308p.
3. The nature of the transnational firm / C. Pitelis, R. Sugden, J. Cantwell etc.; - London: Routhledge, 1991. – 16-63 p.
4. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 <https://www.researchgate.net/publication/237244956>
5. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy.// Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8;
6. Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi;
7. Dunning, J.H., The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business, 8(2), 2001, pp. 173-190.
8. Dunning, J.H., The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business 2001.
9. Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
11. <https://www.statista.com/statistics/326496/inflows-foreign-direct-investment-worldwide/>
12. (World Bank) Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.